NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan №12 (774), 2024-yil 27-iyun facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ Bugunning gapi

## ISTIQBOLLI ENERGIYA MANBAI – RIVOJLANISH OMILI



**O‘zbekistonda energetika yildan-yilga rivojlanib, zamonaviylashib borayotgan yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Bugun har qanday ob-havo sharoitiga qaramasdan aholi xonadonlari, iqtisodiyot tarmoqlari uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlanayotgani, bu tizimda ishlayotgan minglab fidoyilarning mehnati bilan iqtisodiyot tarmoqlari barqaror ishlayotgani tahsinga munosibdir.**

Ayni paytda energetika sohasini yangi bosqichga olib chiqish yo‘lida muhtaram Yurtboshimiz rahbarligida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Buning natijasida yurtimizda muqobil energetika jadal rivojlanmoqda, tarkibiy o‘zgarishlar, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari jadal sur’atlarda davom etmoqda. Bunday yangilanishlarni Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bosh energetigi G‘olibjon Xolboyev energetika sohasida olib borilayotgan ishlar va bu quvvat manbaining gigant korxona rivojidagi o‘rni borasida o‘z fikrlarini bayon etdi:

- Ma’lumki, energiya manbalarining zaxirasi cheklangan. Shu bois, O‘zbekistonda davlatimiz Rahbari boshchiligida “yashil” energetikaga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish boshlangan. Yurtimizda quyosh, shamol va gidro elektr stansiyalarini ishga tushirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada berilayotgan imtiyozlar har tomonlama ahamiyatlidir. O‘zbekiston - organik yoqilg‘ilarning barcha turlarini ishlab chiqarish hajmidan uch barobar oshadigan katta miqdordagi qayta tiklanadigan energiya salohiyatiga ega mamlakat. Diyorimizda quyosh energiyasidan foydalanadigan texnologiyalar katta istiqbolga ega. Chunki qayta tiklanadigan energiyaning ushbu turidan butun mamlakat hududida yil davomida foydalanish mumkin. Quyosh energiyasidan foydalanishni ko‘paytirish mamlakatning, ayniqsa, yil sayin ishlab chiqarish quvvatlari oshib borayotgan sanoat korxonalari, yirik shahar va qishloqlarning elektr hamda issiqlik energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini bemalol qondirib, katta hajmdagi tabiiy gazni tejash imkonini berishi mumkin.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishga qaratilgan ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, kombinatda energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha texnik va tashkiliy chora-tadbirlar olib borilmoqda.

2023-yilda quyosh va shamol quvvatlarining 96 foizi ko‘mir va gaz elektr stansiyalariga qaraganda ishlab chiqarish xarajatlari pastligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, o‘tgan yilda quyosh panellarining narxi yillik hisobda qariyb 50 foizga pasaygan va dunyoda ularning ishlab chiqarish hajmi 2021-yilga nisbatan uch barobarga oshgan.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati respublikadagi elektr energiyaning yirik iste’molchilaridan biridir. Korxonamizda “yashil energiya”ga o‘tish bo‘yicha aniq rejalar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish bo‘yicha ishlar tizimli tashkil etilayapti.

Unga ko‘ra, 2024-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish hisobiga 319,5 million kVt*soat elektr energiyasi hamda 2,6 million kubometr tabiiy gazni tejash belgilangan. Shu yilning 1 iyun holatiga ko‘ra kombinatda 63,4 million kVt*soat elektr energiyasi tejashga erishildi:

**“EKG” rusumli ekskavatorlarga tranzistor o‘zgartirgichli dvigatel tizimini joriy etish hisobiga 2,1 million kVt*soat;**
**- Elektrodvigatellarga chastota o‘zgartirgichlarni qo‘llash hisobiga - 1,6 million kVt*soat;**
**- Texnologik jarayonlarni takomillashtirish hisobiga 18 million kVt*soat;**
**- Elektr jihozlarni zaxiraga chiqarish hisobiga 33 million kVt*soat;**
**- Mavjud uskunalarni kichik quvvatdagi uskunalarga almashtirish hisobiga 4,3 million kVt*soat;**
**- Uskunalarni modernizatsiya qilish hisobiga 293 ming kVt*soat;**
**- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish hisobiga - 2,8 million kVt*soat energiyani tejash ta’minlandi.**

Yana shuni alohida ta’kidlash joizki, kombinatda quyosh fotoelektr stansiyalarini joriy qilish bo‘yicha ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda kombinatda jami 1 450 kVt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirilib, hozirda ular tomonidan yiliga 2,46 million kVt*soat quvvatga ega elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. Shuningdek, joriy yil yakuniga qadar yana rejaga qo‘shimcha ravishda 5 700 kVt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushiriladi. Natijada kombinat ma’muriy binolarining elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojining 50 foizidan ortig‘i qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan qoplanadi.

Shu davrga qadar kombinatda jami 678 dona quyosh panelli yoritgichlar foydalanishga topshirilgan. Joriy yilda yana qo‘shimcha 1 500 dona, ya’ni, 616,3 ming kVt*soat quvvatga ega yoritgich o‘rnatilishi rejalashtirilgan bo‘lib, shundan hozirgi kunda 1 194 donasi o‘rnatildi. Yil yakunigacha quyosh panelli yoritgichlar soni 2 178 donaga oshirilib, tejamkorlik yiliga 913,2 ming kVt*soatga yetkaziladi.

Ayni paytda investitsiya loyihasi asosida “Auminzo-Amantoy” koni yaqinida 220 mVt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasini qurish bo‘yicha Birlashgan Arab Amirliklarining “Tepelen Group Holding Limited” kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Fotoelektr stansiyasi ishga tushirilgach, yiliga 374 million kVt*soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Davomi 2-betda



■ 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

## AXBOROT XIZMATI RAXBARLARI UCHUN MEDIA-FORUM

**Joriy yilning 21-22-iyun kunlari Bo‘stonliq tumanidagi “Gornyak” pansionatida davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlari uchun navbatdagi “Axborot xizmatlari faoliyati: ochiqlik, tezkorlik va xolislik bosh mezon” mavzusidagi Milliy konferensiya va Media-forum bo‘lib o‘tdi. Matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni munosabati bilan har yili tashkil etiladigan mazkur tadbir Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan hamkorlikda o‘tkazib kelinmoqda.**




Bu galgi konferensiya barcha soha xodimlari uchun foydali va samarali bo‘ldi, deyish mumkin. Boisi, har bir so‘z, har bir fikrni o‘ylab aytish, yozish zarurligi ta’kidlandi. Tadbirning ochilish marosimida O‘zbekiston Prezidenti administratsiiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xodjayev “Bugun matbuot kotiblari faqat ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinayotgan tanqidlar bilan ishlayotgani, jurnalistlarning so‘rovlari, murojaatlariga yetarli e’tibor berilmayotganligi”ga urg‘u berib, media savodxonlikni oshirish borasida hali qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar borligini aytib o‘tdi.

Media-forum ishtirokchilari uchta panelga bo‘linib, sohaga aloqador mavzular, zamonaviy axborot texnologiyalarni qo‘llash usullarini o‘rgandilar. Axborot xizmatlarining kampaniyalashgan holda ishlash mexanizmlari: mavjud muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo‘llariga bag‘ishlangan panelda markaziy idoralar, huquq-tartibot organlari va mahalliy hokimliklar axborot xizmatlari rahbarlari ishtirok etdi. Sessiyada inqirozli vaziyatlarda samarali ichki va tashqi kommunikatsiya kanallarini o‘rnatish masalasi muhokama qilindi.

Maxsus taklif qilingan ekspertlar tomonidan sun’iy intellektdan davlat organlari faoliyatida foydalanish, texnika va inson uyg‘unlashuvining kelajakka ta’siri hamda axborot xavfsizligi: tahdidlar, texnologiyalar, tendensiyalar mavzularida ma’ruzalar qilindi.

Adliya vazirligi matbuot kotibi S.O‘rinboyeva hamda Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi axborot xizmati rahbari S.Zokirovalar axborot taqdim etish bilan bog‘liq huquqiy normalarni amaliyotda uchraydigan yangi keyslar misolida tushuntirib berishdi. Xususan, axborot taqdim etish bilan bog‘liq amaliyotda uchrayotgan muammolar qatorida - “Whistleblowing”, ya’ni sohaga oid turli huquqbuzarliklar haqida xabar berish tizimi mavjud emasligi, ichki kommunikatsiya, ya’ni rahbar va xodimlar o‘rtasidagi munosabat va hokazolar sanab o‘tildi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi matbuot kotibi J.Qalandarov hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi axborot xizmati rahbari o‘rinbosari S.Hikmatullayevlar “Vaziyatlarda to‘g‘ri kommunikatsiya kanallarini o‘rnatish” mavzusida chiqish qildilar.

Media-forumning yana bir panel sessiyasida Markaziy bank axborot xizmati rahbari A.Nazarov va Soliq qo‘mitasi matbuot kotibi D.Hoshimova taqdimotlarida 2030-yilga borib matbuot kotiblari faoliyatida kutilajak yangiliklar, kelajak kasblarida axborot xizmatlari rahbarlarining o‘rni, ijobiy-salbiy taxminlar, profilaktik tadbirlar masalalarini atroflicha tahlil qilishdi. Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari, uning yordamida sifatli kontent yaratish usullari yuzasidan tushuntirishlar berishdi. “Biznesni rivojlantirish banki” matbuot kotibi Sh.Oripov va “O‘zmilliybank” axborot xizmati rahbari Z.To‘xtayevalar ma’ruzalarida inflyuyenser-marketing: fikr yetakchilarini tanlash va ular bilan ishlash bo‘yicha top maslahatlar tavsiya qilishdi.

Sessiyalar yakunida forum qatnashchilari mavzular bo‘yicha fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Media-forum ishtirokchilari stol tennisi, shashka va voleybol sport turlari bo‘yicha bellashdilar. Musobaqaning har bir sport yo‘nalishi bo‘yicha g‘oliblar aniqlandi va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

Media-forum doirasida, shuningdek, hududiy boshqarmalar rahbarlari hamda viloyat, tuman, shahar hokimliklari matbuot kotiblari uchun maxsus o‘quv-seminari ham tashkil etildi.

**Azamat ZARIPOV.**

**So‘zning qadri va qiymatini bilgan har bir kishiga ma’lumki, dunyoning yaratilishi qalam bilan bog‘liq. Bu bir qarashda biz uchun oddiy ko‘ringan yozuv qurolining – siyohi ifoda etgan sahifalarning ahamiyatiga ham dalolat aslida!**

## KATTA HAYOT MAKTABI

O‘rta maktabni tugatish arafasida badiiy ijod bilan faol shug‘ullanib, o‘zimcha qissa va roman, deb o‘ylagan qoralamalarim ham bor va bu qog‘ozlar allaqachon qo‘ltiqqa sig‘maydigan darajaga kelib qolgandi. Bir kuni bu haqda adabiyot o‘qituvchimga bildirdim. Muallim esa men bergan papkani ko‘targancha to‘ppa-to‘g‘ri direktor xonasiga olib bordi va men haqimda, yozganlarimni qayerdadir chop ettirish lozimligi borasida gaplashishdi. Maktab rahbari ko‘zlari quvnab, bir qo‘lidagi qog‘ozlarga, bir menga boqarkan, o‘qituvchimga Karmanaga borib, tuman gazetasida ishlaydigan Odil Hotamov bilan uchrashishimiz lozimligini tayinladi. Ertasi kuni Karmanaga — “Karmana ovozi” gazetasi tahririyatiga bordik. Oddiygina hovliga monand bu imorat ostonasidan hatlab kirarkanman (hozir afsuski bu tarixiy binodan asar ham qolmagan!) yuragimda qandaydir hapqirish — hayajon bor edi! Mana shu kuni ilk da’fa taqdirim kelajakda bog‘lanadigan “tahririyat” atalmish manzil bilan yuzma-yuz kelgandim! Ustoz Odil Hotamov (joylari jannatda bo‘lsin!) bizlarni samimiy kutib oldilar va stollari ustidagi qo‘lyozmalarni bir chetga surib, ijodim namunalariga ko‘z tashlab, ayrim fikrlarni bildirib o‘tdilar.

Institutda o‘qib yurgan kezlarim esa ijodiy jamoalar bilan sekin-asta yaqin bo‘lib bordim. Institutni bitirish arafasida katta bir jumboq qarshisida qolgandim: keyingi hayotim qaysi maktabda, qaysi jamoada davom etadi? Har yili institutni bitirib chiqayotgan minglab yosh o‘qituvchilar orasida meni kim ham quchoq ochib kutib olardi? Garchi pedagoglik kasbining ulug‘ligi va sharafini dildan his etsam-da, bu sohada ishlash menga mos emasdek tuyulaverardi. Yuragim hamisha ijodiy bir muhitga, badiiy suhbatga talpinaverardi-talpinaverardi... Jurnalistikaga ishtiyoqim va “Do‘stlik bayrog‘i” jamoasining ko‘magi bilan ushbu tahririyatga ishga kirib, tez orada kichik xabarlar, o‘rtamiyona maqolalar ham yoza boshladim. Oradan bir necha yil o‘tib, viloyatda o‘tkazilib kelinadigan “Yilning eng faol yosh jurnalisti” tanlovida gran-pri g‘olibi bo‘lganimda, tahririyat jamoasi bildirgan katta ishonchni bir muncha oqladim...

Har bir yaxshi tajriba qiyinchilikni amalda his etish va zimmadagi mushkul vazifani ado etib borish bilan yuzaga keladi. “Do‘stlik bayrog‘i” gazetasida har yili Mustaqillik ayyomi arafasida shahar-tumanlarda amalga oshirilayotgan loyihalar, oddiy insonlarning hayotiga bag‘ishlangan qo‘shsahifalarni tayyorlash an’ana edi. Shu tariqa yosh muxbir sifatida tajribali jurnalistlar bilan yurt kezib, odamlar bilan muloqotda bo‘lib, turli soha vakillaridan intervyular olardik. Har bir maqolaning sarlavhasi qanday bo‘ladi, kirish qismi qanday yoziladi — buning har biri alohida-alohida o‘ylanishi kerak bo‘lgan jihatlar, bu jarayon esa kishidan katta kuch va ruhiy zo‘riqishni talab qilardi. Mana shunday mas’uliyatni oqlab, ba’zan xatolarga ham yo‘l qo‘yib, sekin-asta jurnalistikada tajriba to‘plab bordim. “Do‘stlik bayrog‘i”dan so‘ng O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limida, ilk qadam bosgan tahririyatim — “Karmana ovozi”da ham ishladim.

Gazeta jurnalisti — nafaqat matn tahriri ustida qizg‘in ishlaydi, balki maqolada aks etgan hayotga ham boqadiki, jamiyat turmushini kamchiliklari-yu yutuqlari bilan boricha ko‘radi, ba’zan tanqid qiladi, ba’zan kuyinadi, ba’zan bolalarcha sevinadi — umr qozonida qaynaydi!

Shu ma’noda, gazetalar tahririyatlarini katta hayot maktabiga mengzash mumkin. Bu faqat yozishni emas, odamlar bilan muomalani, jamiyatni — dunyoni idrok etishni, boshqalarga o‘rnak bo‘la olishni, bir nuqtada tarix, bugun va kelajakka boqishni ham o‘rgatadi!

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida faoliyat boshlagan davrim hayotimda yangi bosqich bo‘ldi. Sababi oliy ta’lim muassasasi matbuot kotibi sifatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati negizidagi "Konchilar hayoti" gazetasi ijodiy jamoasi tajribali qalamkashlari bilan hamkorlik olib borish imkoni paydo bo‘ldi. Gazeta ijodkorlari safida bevosita kombinat fidoyilari haqida publitsistik maqolalar tayyorlashda ozmi-ko‘pmi hissa qo‘shib kelayotganimdan mamnunman, albatta.

**Ozod MUSTAFOYEV,**
**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti matbuot kotibi,**
**O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi.**

■ Dolzarb mavzu

**Inson organizmining uchdan ikki qismi suvdan iborat. Odam chanqagan paytda o‘zini lohas sezadi, tomog‘i qurib, ko‘ngliga shodlik sig‘may qoladi. Tashnalik sabab atrofimizdagi tabiat go‘zalliklari ko‘zimizga ko‘rinmaydi. Miriqib suv ichgan mahalda esa ko‘nglimiz yorishadi, Yaratganning bebaho ne’matidan shukronalik hissini tuyamiz...**

# SUV – BEBAHO NE’MAT

## udan oqilona foydalanishda qanday choralar ko‘rilyapti?



Ichimlik suvi butun dunyo standartlari bo‘yicha oziq-ovqat mahsuloti sifatida tasniflanadi va u bizning uyimizga kirishdan oldin, inson salomatligiga xavfsiz bo‘lishi uchun laboratoriya sinovlaridan o‘tkaziladi. Tabiiy suvning kimyoviy va mikrobiologik tarkibi sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq ikki yil davomida mavsumlar bo‘yicha o‘tkazilgan laboratoriya tahlili asosida baholanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ekspertlarining “Jahon suv taraqqiyoti-2022” hisobotida qayd etilishicha, ayni vaqtda dunyodagi mavjud chuchuk suvning 99 foizi yer osti suvlari hisoblanadi. Yer osti chuchuk suvlari dunyo aholisi iste’mol qilayotgan toza ichimlik suvining yarmi, sug‘orish uchun ishlatilayotgan suv hajmining 25 foizini tashkil etadi. “Dunyoning ko‘p mamlakatlarida suv tanqisligining kuchayishi sharoitida yer osti suvlarining ulkan salohiyati va uni ehtiyotkorlik bilan boshqarish zaruriyatini endi e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi”, deyiladi mazkur hisobotda.

O‘zbekistonda ham bugungi kunda aholini to‘liq toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda va davlatimiz rahbari bu borada qator vazifalarni belgilab bermoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 31-maqsadi suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirishdan iborat. Ushbu strategiyada 2026-yilga borib respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Bu masala Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari hamda mutaxassislari diqqat markazida bo‘lib kelayapti. Olimlarimiz tomonidan olib borilgan qator ilmiy izlanishlar o‘zining samarasini bermoqda. Kombinat bosh direktori Quvondiq Sanaqulov tashabbusi bilan 2021-yildan e’tiboran Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tarkibida “Suv muammolari tadqiqoti” laboratoriyasi tashkil etilgani ham bejizga emas. Mazkur laboratoriya tarkibida kimyoviy, spektral va radiologik tahlil hamda texnologik tadqiqotlar guruhlari ish olib boradi. Laboratoriya tarkibida 20 dan ortiq kimyoviy elementlarni aniqlashga mo‘ljallangan atom-absorbsion analizatori, eritma tarkibidagi loyqalik darajasini aniqlash mutnomer asbobi, spektrofotometr, elektron tarozi, kuydirish pechi, distillator kabi uskunalar mavjud.

Laboratoriya mutaxassis va olimlari tomonidan o‘tgan davrda quyosh energetikasidan foydalanib, yer osti sizot suvlarini toza ichimlik suviga aylantirish innovatsion qurilmasi ustida ish olib borildi. Natijada bugungi kunda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hududida to‘liq quyosh energiyasidan foydalanib, yer osti suvlarini toza ichimlik suviga o‘zgartirib beruvchi yangi namunadagi suv tozalash qurilmasi yaratildi. Qurilma o‘rnatilgan ayvon ustida 0,5 kVt. tok ishlab chiqarish quvvatiga ega 6 ta quyosh paneli ham joylashtirilgan bo‘lib, mazkur panellar yetkazib berayotgan tok maxsus batareyada yig‘ilmoqda va bu texnologiyaning barqaror ishlashi uchun yetarli hisoblanadi. Batareya kechki vaqt yoki bulutli kunlarda ham 10 soatgacha uzluksiz elektr energiyasi yetkazib bera oladi. Mazkur texnologiya ayni vaqtda bir soatda 500 litr hajmdagi toza suv ishlab chiqarish quvvatiga ega. Laboratoriya tahlillari yer osti suvi tozalangach, uning qattiqlik darajasi o‘n baravarga kamayib, toza ichimlik suvi holatiga kelishini ko‘rsatmoqda.

Yangi texnologiyaning texnik-ishlab chiqarish jarayonlariga batafsil to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, dastlab 60 metrlik yer osti qudug‘iga suv chiqarish nasosi o‘rnatilgan bo‘lib, mazkur nasos 30 metrdan suv chiqarib bermoqda. Suv birinchi bosqichda kationli filtrga keladi. Dastlab loyqa va muallaq qum zarralaridan xoli qilingan suv tarkibi so‘ngra kationlardan tozalanadi, ya’ni asosan kalsiy va magniy ionlari ushlab qolinadi. Filtrning yana bir afzalligi shundaki, ma’lum vaqt o‘tib kationlar kalsiy va magniy ionlariga to‘lgach, qayta regeneratsiya qilish (filtrni qayta faol holatga keltirish) uchun arzon mahsulot, ya’ni osh tuzidan foydalaniladi. Bundan tashqari, filtr ichiga yuklangan kationitli smoladan to‘liq besh yil muddatgacha almashtirmasdan foydalanish mumkin. Ushbu filtr suv tozalash qurilmasining uzoq va ishonchli ishlashini ta’minlab berishda muhim qism sanaladi.

Keyingi bosqichda tozalanayotgan ichimlik ming kub detsimetr sig‘imga ega suv bakiga kelib tushadi. So‘ngra past bosimli nasos suvni yuqori bosimlisiga haydab beradi va mazkur nuqtadan so‘ng suv teskari osmos qurilmasiga kelib tushib, ushbu jarayonda suvni ifloslantiruvchi moddalardan ajratish uchun membranadan foydalaniladi. Membrana besh bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda 5 mikronli polipropilen filtrdan o‘tkazilib, ikkinchi bosqich-ko‘mir adsorbentga yuttiriladi. Uchinchi bosqichda esa 1 mikronli filtrdan o‘tkazilib, membranaga beriladi. Ushbu membranadagi mayda teshikchalardan faqatgina suv molekulalari o‘ta oladi, xolos. Hajmi nisbatan yirik ionlar, kalsiy, magniy, xlor, sulfatning asosiy qismi esa o‘ta olmaydi. Shundan so‘ng suv mineralizatorga beriladi. Mineralizatorda minerallashgan suv ultrabinafsha nurlar yordamida turli bakteriyalardan tozalanadi. Ichishga yaroqli holatga keltirilgan suv ming kub detsimetr sig‘imga ega ikkinchi – toza ichimlik suvi bakiga kelib tushadi.

Suv tozalash innovatsion texnologiyasining yana bir muhim konstruksiyasi suv tarqatish qurilmasi sanaladi. Bu qurilma orqali iste’molchilar 5 litr va 10 litr hajmdagi suv idishlarini kerakli kameraga joylashtirib, osongina suv olishlari mumkin. Ayni vaqtda yangi qurilmaning afzallik jihatlari va toza ichimlik suvi yetib bormagan olis qishloqlarda o‘rnatib berish imkoniyatlari hamda xarajatlari aniqlanmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozim, bugungi kunda Navoiy viloyati aholisi bir million nafardan oshdi. 68,2 foiz aholi markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlangan. Viloyatda jami mahallalarning 61 tasi, ya’ni 18 foizi ichimlik suvi ta’minoti og‘ir mahallalar sanaladi. Maktablarning 127 tasi muqobil manbalar bilan ta’minlangan bo‘lsa, 59 ta maktabga suv tashib yetkaziladi. Davlat tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 15 tasi muqobil manbalar bilan ta’minlangan, 13 ta maktabgacha ta’lim muasasasiga esa suv tashib keltiriladi. Davlat tibbiyot muassasasalarining 42 tasi muqobil suv manbasiga ega, 7 tasiga ichimlik suvi tashib boriladi.

“Navoiy suv ta’minoti” tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda 1 kilometr toza ichimlik suvi quvurini loyihalash, olib kelish va qurish xarajatlari o‘rtacha 300 million so‘mni tashkil etmoqda. Shu ma’noda olimlarimiz taklif etayotgan yangi loyiha budjet xarajatlarini tejash, qolaversa aholiga yanada arzon toza ichimlik suvi yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Joriy yilda viloyatimizning Konimex, Qiziltepa, Tomdi tumanlari hamda G‘ozg‘on shahridagi jami 11 ta ovul va mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarida ichimlik suvini tozalash uskunalari o‘rnatiladi.

Xulosa qilib aytganda, dunyoda chuchuk suv zaxiralari tobora cheklanib borar ekan, sayyoramiz aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash global masalaga aylanib boradi. Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda 2,2 milliard aholi ichimlik suvi ta’minoti cheklangan sharoitda yashamoqda. 2025-yilga borib esa Yer sharining yarmida odamlar ichimlik suvi bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Bu esa avvalo iqlim o‘zgarishlari, insoniyat tomonidan atmosfera havosining ifloslantirish darajasi tobora o‘sib borayotgani, mavjud resurslardan oqilona foydalanmaslik kabi dolzarb masalalar bilan bog‘liq.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda “inson qadri” tamoyili birinchi o‘rinda turgan ekan, bu kabi jarayonlarda olimlarimiz ham o‘z taklif va tashabbuslari bilan faol ishtirok etadi.

**Husniddin VAFOYEV,**
**“NKMK” AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi “Suv muammolari tadqiqoti” laboratoriyasi boshlig‘i, texnika fanlari doktori.**

# BUNGA BARCHAMIZ MAS’ULMIZ!

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi sababli, suv muammosi butun dunyoni tashvishga solmoqda. Bu muammo O‘zbekistonni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Shu bois, obi-hayot manbaini tejab-tergab ishlatish, undan samarali va maqsadli foydalanish, bu borada zaruriy targ‘ibot-tushuntirish ishlarini olib borish, shu bilan birga, ta’minot korxonalari tomonidan yetkazib berilgan ichimlik suvi, oqova suv, issiqlik ta’minoti hamda kanalizatsiya xizmatlari bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Aziz hamkasblar! Ma’lumki, viloyat aholisi, shu jumladan, sizu biz yashab kelayotgan xonadonlarga bu xizmatlarni “Navoiy suv ta’minoti” MChJ va “Issiqlik manbai” DUK bajarib kelayapti. Bu sharafli kasb egalarining tunu kun olib borayotgan mehnatlarini qadrlagan holda, bu borada qarzdorlikka yo‘l qo‘ymaslikka, belgilangan ta’rif bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishga chorlab qolamiz!

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Korporativ ijtimoiy mas’uliyatlar bo‘limi.**

■ Люди нашего комбината

# КОРОЛЕВА ВЫСОТЫ



**В многотысячном коллективе Навоийского горно-металлургического комбината трудятся представители многих профессий, причём грань между мужскими и женскими специальностями практически стёрта. Так, Альбина Ришатовна Погосская не просто много лет работает машинистом крана Зарафшанского управления строительства (казалось бы, чисто мужская профессия), но и считается одним из лучших специалистов в этом деле. В ноябре 2023 года за многолетний добросовестный труд в честь 65-летия Навоийского ГМК она удостоена высокой государственной награды – ордена «Дустлик», которую вручал премьер-министр Республики Узбекистан Абдулла Арипов.**

Рассказать о ней хотелось бы не только как о мастере своего дела, но и как о неординарной, интеллигентной, светлой и обаятельной женщине.

Родилась Альбина Ришатовна в городе Каган Бухарской области. В 1994 году её отца, Ришата Рашидовича Камалова, пригласили в Зарафшан машинистом-инструктором в Управление железнодорожного транспорта Центрального рудоуправления НГМК. В 1997 году вся семья Камаловых переехала в Зарафшан. Мама, Гульсина Мазгумовна, работала в управлении ЗУС бухгалтером.

Зарафшан встретил хорошо, Камаловым здесь всё понравилось, хотя и пришлось пожить сначала в общежитиях, в съёмных квартирах. Альбина, с детства мечтавшая стать модельером одежды, отучилась в учебном центре на швеюмотористку 4 разряда, затем два года работала швеёй в малом предприятии «Далол». Она вспоминает, что самым ответственным заданием для неё в тот период было изготовление на день Независимости Узбекистана флага и герба Узбекистана больших размеров, с которым трудолюбивая и умелая работница успешно справилась. Надо сказать, что и в дальнейшем Альбина не забросила шитьё, и в свободное время шила платья и другие изделия для себя, своих трёх дочерей, мамы, брала заказы, выполняла и более масштабные работы – шила сценические костюмы для хореографических и вокальных коллективов ДК «Золотая долина», для детских садов костюмы на утренники...

- Однажды мама пришла с работы и сказала, что в ЗУС набирают молодёжь на курсы обучения машинистов крана, и мне очень захотелось попробовать, - рассказывает Альбина Ришатовна. – После окончания курсов нас повели на испытательный срок на строительную площадку медколледжа и лицея в Зарафшане. Надо сказать, что несколько человек из нашей группы просто побоялись подняться на кран и испытание не прошли. А я спокойно поднялась - мне понравилась и высота, и широкий обзор, я прекрасно себя чувствовала. Так, с 2000 года стала работать машинистом крана в Управлении механизированных работ (УМР) ЗУС. Меня сразу отправили на Бесапан, на башенный кран. Моя наставница Татьяна Чимная объяснила и показала, где контроллеры, каретка, каким образом перемещается кран, где находится груз и куда его нужно доставить...

В целом за 7 лет работы на Бесапане А.Погосская освоила все виды кранов, и сейчас она является машинистом, имеющим допуск на работу на всех видах кранов – башенных, козловых, мостовых с самым высшим, пятым профессиональным разрядом.

За 24 года работы Альбина Ришатовна активно и плодотворно участвовала при строительстве объектов, проводимых СМУ «Монолит», СМУ-39, СМУ «Зарафшон», МСУ-79, при работах на заводе железобетонных изделий, УПТК и других. Другими словами – это была реализация важных инвестиционных проектов НГМК, направленных на строительство новых современных производств, модернизацию предприятий, техническое и технологическое перевооружение.

- Конечно, помимо романтики, в работе крановщиков есть и свои трудности, - говорит Альбина Ришатовна. – Это и 12-часовой рабочий день, это кабина, в которой летом жарко, а зимой холодно. Значительно усложняют работу сильные ветра, которыми так щедра пустыня, и которые раскачивают башенный кран. Это постоянная нагрузка на ноги – надо сначала подняться на многометровый (от 20 и больше 40 метров высотой) кран, а затем с него спуститься. Однажды пришлось совсем туго, когда при строительстве аквапарка в Зарафшане не хватало крановщиков, и я обслуживала два крана одновременно – башенный и козловой. От одного к другому бегала. Очень уставала, но была молодая, энергичная, поэтому справилась. Да вообще за эти годы было много непредвиденных моментов...

- Был у меня и опыт, так сказать, кабинетной работы, - поделилась Альбина Ришатовна. - В 2009 году окончила горнотехнический колледж в городе Кизил-Кия (Киргизия) по специальности «Экономика и бухгалтерский учёт». Через 5 месяцев работы бухгалтером в УМР поняла, что кабинетная работа не для меня. Я скучала по крану, по высоте, по жаре и холоду в кабине, словом, по своей любимой работе, которая стала моим призванием, приносит мне и радость, и достаток, и удовольствие от сделанного, и уважение.

Сейчас А.Погосская работает на башенном кране на грузовом участке автобазы №4 ЗУС АО «НГМК». Рабочий день начинается в 8.00, заканчивается в 19.00 часов. Руководство особенно отмечает её бережное отношение к технике.

- Я свой кран берегу, - говорит она. – Ежедневно перед началом работы проверяю его на исправность, один раз в 10 дней провожу досмотр крана вместе с электриками, слесарями и другими необходимыми специалистами. Я требую от них тщательной проверки, замены какихлибо запчастей. Технику надо беречь, об этом я и ученикам своим твержу! Это и собственная безопасность, и экономия для предприятия…

На вопрос: «Женская ли это профессия?» Альбина Ришатовна ответила положительно:

- У нас в ЗУС работают 5 женщин-крановщиков. Женщины на этой работе более внимательные, ответственные, более точные при разгрузке грузов. Очень хотелось бы принять участие в конкурсе крановщиков - я стараюсь поднимать груз без качки, умею приостановить качку, точно подвести груз, точно остановить ход или поворот. Хочу показать своё мастерство, доказать, что женщины работают на кране не хуже мужчин.

Важно сказать, что Альбина Ришатовна является и почётным наставником - почти с первых месяцев работы молодой, но способной и ответственной девушке доверяли обучение стажёров. На сегодняшний день их у неё немало, многие до сих пор работают с ней в одной организации. В День учителей и наставников хоким города Зарафшана вручил ей Почётную грамоту с памятным подарком как заслуженному наставнику.

Также А.Погосская, как член Либерально-демократической партии Узбекистана, принимает активное участие в общественной жизни трудового коллектива, следит за новостями политической и экономической жизни нашей страны, пропагандирует любовь к труду и здоровый образ жизни среди своих коллег и молодёжи, помогает в работе махаллинского хода граждан.

О большом доверии и уважении к ней говорит тот факт, что в апреле 2024 года Альбина Погосская в составе делегации из 35 заслуженных женщин Узбекистана со всех областей республики по инициативе Президента Узбекистана отправилась в город Пятигорск (Россия) для участия в научно-практическом семинаре-тренинге «Стратегия Узбекистана-2030: цели, задачи и приоритеты». Она благодарна руководству страны за оказанное доверие и готова делиться полученными знаниями с коллегами и жителями Зарафшана.

При всей своей занятости Альбина Ришатовна никогда не забывает о семье. В доме у Погосских уютно, тепло, создана невероятно дружественная и гостеприимная атмосфера.

- Для меня семья всегда была высшей ценностью, - поделилась заветным Альбина Ришатовна. – Я всегда хотела создать крепкую семью, как у моих родителей, и, думаю, у меня это получилось. С супругом, Александром Владимировичем, вместе уже 22 года, он трудится слесарем на конвейерной ленте в ЦКВЗ. У меня три дочери: страшая замужем, есть годовалый внук Богдан, средняя окончила 9 класс, младшая – 1 класс. Всегда им говорю: «Я работаю ради вас, ради вашего благополучия». Думаю, они это ценят. Когда прихожу с работы, дома уже ужин приготовлен, выпечка на столе, чисто. Сразу усталость покидает, и душа радуется.

В завершение Альбина Ришатовна посоветовала молодёжи не зацикливаться на поиске лёгких путей и престижных профессий. Ведь физический труд тоже по-своему прекрасен – это не только ответственность, определённые трудности, но и романтика, и достаток, и хорошие, отзывчивые, трудолюбивые люди. Как говорил её отец, Ришат Рашидович, награждённый отраслевым нагрудным знаком «Горняцкая слава» III и II степеней: «Никогда не ленитесь учиться и работать, и тогда у вас будет всё, что пожелаете».

Надеемся, эти слова будут услышаны, ведь Альбине Ришатовне они помогли добиться в жизни многого.

**Насиба ШАМУРАТОВА.**

■ Bugunning gapi

# ISTIQBOLLI ENERGIYA MANBAI – RIVOJLANISH OMILI

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Kombinat bo‘linmalarini qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda issiq suv bilan ta’minlash yo‘nalishida olib borilayotgan ishlarni ham aytib o‘tish joiz. Quyosh energiyasidan nafaqat elektr, balki issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda foydalanishga e’tibor qaratilgan. 2023-yilda kombinat tarkibiy bo‘linmalarida umumiy qiymati 38 760 million so‘mlik jami 3 346 dona quyosh suv isitgichlari o‘rnatildi hamda foydalanishda bo‘lgan quyosh suv isitgichlarining umumiy soni 4 993 donaga yetkazildi. Bu esa joriy yilning yoz mavsumidan boshlab (aprel-oktabr oylarida) bo‘linmalarning issiq suvga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan qoplash va yiliga 1,7 million kubometr tabiiy gazni iqtisod qilish imkoniyatini yaratadi.

Suv isitish qurilmalarini nafaqat ishlab chiqarish obyektlarimiz, balki korxonamizda faoliyat olib borayotgan ishchi-xodimlarimiz xonadonlariga ham o‘rnatib berish mo‘ljallanmoqda. Rahbar va ishchi-xodimlarning turar joylarida gelioqurilmalarni o‘rnatish yuzasidan ehtiyojlar o‘rganib chiqildi va natijalari bo‘yicha kombinat tomonidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Korxona ishchi-xodimlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ular uchun qulay narx belgilanib, muddatli bo‘lib to‘lash va xonadonlariga bepul o‘rnatib berish kabi qulayliklar berildi. Hisob-kitoblarimizga ko‘ra, 2023-yilning yakuniga qadar korxona bo‘linmalaridagi rahbar va ishchi-xodimlar xonadonlariga 723 dona geliokollektor o‘rnatildi. Ushbu geliokollektorlarning har biri bir kecha- kunduzda o‘rtacha 11 ming kkal (12,7 kVt*soat elektr energiyasi yoki 1,35 kubometr tabiiy gaz) issiqlik energiyasini ishlab chiqaradi. Umumiy hisobda 723 dona geliokollektor hisobidan bir oyda tarmoqdan olinayotgan 2 200 ming kVt*soat elektr energiyasi yoki 203 ming kubometr tabiiy gaz tejaladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishdan ko‘zlangan maqsad qimmatli resurslar zaxirasini iqtisod qilish, atrof-muhitning ifloslanish va yemirilishining oldini olish, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, energiyani behuda ishlab chiqarmaslikdan iboratdir. Bunday yondashuv energiya ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga, shuningdek, innovatsion va samara beradigan energetika uskunalarini ishlab chiqarish va aholi ongida energiyadan tejab-tergab foydalanish tushunchasini shakllantirishga qaratilgan. Bu, katta miqdorda elektr energiyani tejashdan tashqari ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirishga olib keladi.

**Dildora KARIMOVA suhbatlashdi.**

■ 30-iyun – Yoshlar kuni

**Bugun yurtimizda yoshlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik, yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar har qachongidan ham yuqori darajaga ko‘tarilgan. Yangi O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning zamirida inson qadrini ulug‘lash, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berishdek ezgu niyatlar yotibdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgani va mamlakatimizda 30 iyun – Yoshlar kuni, deb e’lon qilingani kelajagimiz egalari hayotida muhim voqea bo‘ldi. Zero, davlatimiz rahbarining: “Yangi O‘zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz” degan fikrlari bugun amalda o‘z isbotini topmoqda.**

# YOSHLAR – ERTANGI KUN EGALARI!




O‘zbekiston aholisining 56 foizidan ko‘pini, bizning faxrimiz bo‘lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida esa ishchi-xodimlarning salmoqli qismini yoshlar tashkil etadi. Markaziy kon boshqarmasi ishchi-xodimlarining 6004 nafari 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar bo‘lib, ularning 2 163 nafari oliy ma’lumotga ega, 181 nafari rahbarlik lavozimlarida, 203 nafari turli kasblarda mutaxassis bo‘lib ishlab kelmoqda. Ishchi-xodimlarning o‘rtacha yoshi 37 yoshni tashkil etmoqda.

Mana, barchamiz guvohmiz, O‘zbekistonda tarixiy o‘zgarishlar, jadal islohotlar jarayoni kechmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad –inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish degan olijanob tamoyil ustuvor bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdir.

Yangi O‘zbekistonning 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda 2024 – “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili" davlat dasturi barcha sohalarni modernizatsiya qilish va erkinlashtirishdek maqsadlarga xizmat qilayotir.

Xabaringiz bor, 2017-2026-yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 27 loyihani amalga oshirish belgilangan edi. Kombinatimizda ushbu dastur muddatdan ilgari amalga oshirildi. Natijada ishlab chiqarish hajmi oshib, yangi ish o‘rinlari yaratildi. Qisqa vaqt ichida yangi texnologiyalar asosida 5 va 7-GMZlar ishga tushirildi. Bu zavodlarga mingdan ortiq yosh mutaxassislar ishga qabul qilinib, “Ustoz-shogird” an’anasi asosida ish boshladilar. Bundan keyin ham yoshlarimizga zamonaviy ish o‘rinlarini yaratish, innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash tizimli ravishda davom ettiriladi.

Yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlarida ularning bandlik masalalari hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Joriy yilning yanvaridan bugungi kungacha Markaziy kon boshqarmasida 203 nafar fuqarolarning bandligi ta’minlangan bo‘lsa, shundan 137 nafari, jumladan 106 nafari oliy ma’lumotli, 31 nafari o‘rta-maxsus kasb-hunar kollejlarini tamomlagan yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelyapti. Mamlakatimizda barcha sohalarni modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari jadal olib borilmoqda. Yoshlarni zamonaviy axborot texnologiyalari va ilg‘or ishlab-chiqarish texnikasiga oid kasblarga o‘qitish ishlarini kuchaytirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Bugun, Markaziy kon boshqarmasida yoshlar, jami 125 xil turdagi kasb mutaxassisliklarda faoliyat yuritishyapti. Boshqacha aytganda, boshqarmamiz bo‘yicha 1012 nafar konchining 329 nafari, 837 nafar texnologning 316 nafari, 370 nafar mexanikning 267 nafari, 182 nafar energetikning 168 nafari, 289 nafar marksheyderning 159 nafari yoshlardir. Mutaxassis yoshlarimiz ishlab chiqarishda ustozlari bilan bir safda mehnat qilishib, kombinatimizning gullab-yashnashiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

Yoshlar yetakchisi sifatida bo‘linmalarga borganimda ulkan mashina, texnikalarni boshqarayotgan, konlarda javlon urib mehnat qilayotgan yoshlarni ko‘rib xursand bo‘laman. Ularning ko‘zidagi cho‘g‘ boshqacha, maqsadlari katta. Bugun shiddatli davr, ijtimoiy hayotimizda ro‘y berayotgan yangilanish va o‘zgarishlar yoshlardan katta mas’uliyat, yangicha qarash, o‘z ustlarida ko‘proq va tinimsiz ishlashni talab etyapti. Mehnati ortidan rag‘bat ko‘rayotgan yoshlar - o‘z tengdoshlariga o‘rnak bo‘lishmoqda. Shijoatli yoshlar uchun qator davlat mukofotlari ta’sis etilgan. Izlanuvchan, o‘z kasbini chuqur egallagan, intiluvchan yosh mutaxassislar kombinat rahbariyati e’tiborida bo‘lib, davlat mukofotlariga taqdim etilmoqda. Istam Qudratov, Davron Nomozov, Ulug‘bek Quvandiqov, Isrofil Jalilov kabi yosh mutaxassislarning “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti, “Kelajak bunyodkori” va “Shuhrat” medali bilan taqdirlanishi barchamizni xursand etdi.

Kombinatda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iste’dodini ro‘yobga chiqarish, yosh mutaxassislarni tarbiyalash borasida o‘ziga xos maktab yaratilgan. Yoshlarimiz har yili an’anaviy tarzda o‘tkazilyotgan “Yilning eng yaxshi yosh mutaxassisi”, “Yilning eng yosh kasb egasi”, “Yilning eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi”, “Yilning eng yaxshi yoshlar yetakchisi” kabi tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallashyapti. Misol uchun, o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra yoshlarimiz“Yilning eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovida geologiya, oltin ishlab chiqarish texnologiyasi, energetika, mexanika, transport, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish kabi 6 ta nominatsiya, “Yilning eng yaxshi yosh mutaxassisi” tanlovida transport va metallurg kabi ikki nominatsiya bo‘yicha hamda “Zakovat” intellektual turnirida faxrli birinchi o‘rinlarni qo‘lga kiritishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4 noyabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta’lim shakliga suhbat natijalariga ko‘ra tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 675-son qaroriga muvofiq, 2021-yil o‘quv yilidan to bugungi kungacha 98 nafar mutaxassis xodimlar, shundan 25 nafar yoshlar kombinat rahbariyatining tavsiyanomasiga asosan, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasida o‘z sohalari bo‘yicha sirtqi ta’lim olishmoqda.

Kon boshqarmamizda xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, ikkinchi kasbga o‘qitish tizimli ravishda amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda yosh ishchi-xodimlarga alohida ahamiyat qaratilgan. Misol uchun, joriy yilda ikkinchi kasbga o‘qitish, qayta tayyorlash, amaliy ko‘nikmalarni egallash kabi yo‘nalishlarda tashkil etilgan o‘quv kurslarida 722 nafar yosh mutaxassislar akkumulatorchi, kon ishchisi, kimyoviy tahlil laboranti, chilangar-ta’mirlovchi, tovar operatori, elektrgazpayvandchi, elektromontyor, nodir va noyob elementlarni ajratish apparatchisi, tegirmon mashinisti kabi yo‘nalishlarda o‘z bilimlarini oshirishdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bir fikrini keltirishni joiz deb bildim. “Hayot – kurash, raqobat. Bu kurashda kim kuchli bo‘ladi? Aqlli, bilimli, mehnat qilgan”. Bugun Markaziy kon boshqarmasi yoshlari chin ma’noda o‘qib, o‘rganib, mehnat qilishmoqda. Bilim va malakalarini oshirishmoqda

Ularning ko‘zida cho‘g‘, qadamidan o‘t chaqnaydi. Shu boisdan ishonch bilan ayta olamizki, yoshlarimiz o‘z g‘ayrat-shijoatlari bilan yurtimiz ravnaqiga munosib hissalarini qo‘shaveradilar va davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan vazifalarni izchil bajarishda barchaga namuna bo‘ladilar.

**Saodat BOBOYOROVA,**
**Markaziy kon boshqarmasi yoshlari yetakchilari Kengashi raisi.**

# YETAKCHI BO‘LISH MAS’ULIYATI




**Yurtimizda so‘nggi yillarda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlar, ularga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik a’lohida e’tiborga loyiqdir. Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iste’dodini yuzaga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar muhayyo qilinmoqda.**

Farhod Jo‘rayev 2012-yil Navoiy konchilik kollejini tugatib, Navoiy kon-metallurgiya kombinati 1-sonli gidrometallurgiya zavodi energouchastkasida elektr jihozlariga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha elektromontyor bo‘lib ish boshlaydi. Intiluvchanligi, bilimdonligi, xizmat vazifalariga vijdonan yondashuvi bilan rahbarlar e’tiboriga tushib, 2023-yilda zavod bosh energetik xizmati muhandis-energetikligiga tayinlanadi va ayni vaqtda shu lavozimda ishlab kelmoqda.

- Bizning asosiy vazifamiz elektr jihozlarining soz holatda ishlashi va iste’molchilarni uzluksiz issiqlik va elektr energiyasi, ichimlik va texnik suv bilan ta’minlash hamda asosiy va yordamchi energetika jihozlari, muhandislik-kommunikatsiyalardan foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va nazorat qilishdan iborat. Shuningdek, mahsulotlar sifatini ta’minlash, iqtisodiyot, rejalashtirish, hisobga olish va hisobot, mehnatni tashkil etish va xodimlarni boshqarish, moddiy-texnika ta’minoti va mol-mulkning saqlanishi, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, sanoat xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish, ish joylarida yong‘inga qarshi va fuqaro himoyasi, favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasi yo‘nalishlaridan ham xabardor bo‘lishimiz kerak,-deydi Farhod.

Asosiy ishidan tashqari F.Jo‘rayev nafaqat zavod, balki “Qizilqum” kon boshqarmasining faol ratsionalizator yoshlaridan biri. “NKMK” aksiyadorlik jamiyati bo‘linmalarida har yili turli yo‘nalishlar bo‘yicha “Eng yaxshi ratsionalizator” tanlovi o‘tkaziladi. Shu yil tanlovga F.Jo‘rayev tomonidan energetika yo‘nalishi bo‘yicha 2022-2023-yillarda hammualliflikda yaratilgan 15 ta ratsionalizatorlik ishi taqdim qilindi. Tanlov natijalariga ko‘ra Farhod uchinchi o‘rinni egalladi. Bu ishlarning asosida elektr energiyasini tejab, ishchi-xodimlarning mehnat xavfsizligini oshirish, qo‘l mehnatini yengillashtirish, import o‘rnini bosuvchi ehtiyot qismlarni qo‘llash, eng muhimi, iqtisodiy samaradorikka erishish yotadi. Masalan, uning ratsionalizatorlik takliflaridan biri 1-texnologik sexning magnitli fraksiyani qayta ishlash bo‘limidagi reaktorlarning ventilatsiya tizimini takomillashtirishdir. Bu bo‘limdagi reaktorlar doimiy ravishda ishlab turadi. Ularda magnitli fraksiya sulfat kislotasi bilan reaksiyaga kirishishi natijasida inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan gazlar ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan gazlarni ushlab qolish uchun maxsus ventilatsiya tizimi ishlaydi. Ammo ventilatsisiya tizimi o‘chib qolsa, reaktorlar ishlashi davom etadi, bu esa o‘z navbatida zaharli gazlarning binoda to‘planishi va inson hayotiga xavf tug‘dirishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayonda o‘zaro bog‘liqlik yo‘q edi. Yangi sxema qo‘llanilishining samaradorligi shundaki, ventilatsiya tizimi o‘chishi bilan reaktorlar ishi to‘xtaydi va inson hayotiga xavf soladigan gazlar ajralib chiqishining oldi olinadi.

Kon boshqarmasi hududida joylashgan 3-sonli umumiy ovqatlanish korxonasining yerto‘lasidagi muzlatgich kameralarining sovutish tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklifining joriy etilishi evaziga shu paytgacha freonni sovutish uchun ishlatiladigan suv va bu suvni sirkulatsiya qilish uchun ishlatilgan, quvvati 7,5 kVt elektrodvigatel ham kerak bo‘lmaydi. Konditsioner bloklari ichidagi kompressorlarning ishlashi ham zarur emas, faqat ventilatorlar ishlab tursa yetarli. Bu ishlanmalar amalda qo‘llanilib, o‘z natijalarini bermoqda.

Farhod Jo‘rayev zavod yoshlarining yetakchisi hamdir. Bu uning zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

– 2024-yilning yanvar oyida yoshlar yetakchiligiga tayinlandim. Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, qiziqishlarini o‘rganish, ularga ijtimoiy masalalarda yordam berish, iqtidorli yoshlarning ratsionalizatorlik taklif va g‘oyalarini ro‘yobga chiqarishda ko‘maklashishga e’tibor qaratamiz. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, bo‘linmalar o‘rtasida sport musobaqalarini tez-tez o‘tkazib turamiz. Chunki sport va yoshlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir, - deydi korxona yoshlari sardori.

Har bir ishning boshida mohir usta turishi va yosh mutaxassisga ish o‘rgatgan ustozi bo‘lgani kabi Farhodjonning yutuqlarga erishishida X.Qarshiyev, J.O‘sarov, A.Zaynutdinov, A.Jumayev va hozirgi paytda energetika sohasida kasb sirlarini o‘rgatayotgan zavod bosh energetigi M.Jo‘rayevlarning hissasi kattadir. F.Jo‘rayev o‘z bilimlarini oshirish ustida ham ishlamoqda. Ayni vaqtda u Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida tahsil olayapti. F.Jo‘rayev mazkur oliygohning elektroenergetika yo‘nalishida 2-bosqich talabasidir.

Farhodjon asosiy ishidan tashqari WEB-dasturlashga yoki WEB saytlar yaratishga qiziqadi. Orzulari bilan qiziqqanimizda, u energetika bo‘yicha yangi g‘oyalari ko‘pligi va kelajak texnologiyalarini rivojlantirish yo‘lida harakat qilishini bildirdi.

Zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiychi shartidir. Yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan yoshlar yurtimizning bugungi va ertangi taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda. F.Jo‘rayev aynan ana shunday yoshlar safida.

**A.AXMEDOVA**

# РАЗВИВАТЬСЯ, РАБОТАТЬ, ПУТЕШЕСТВОВАТЬ

**2024 год в Узбекистане объявлен Годом поддержки молодежи и бизнеса. В Навоийском горно-металлургическом комбинате молодежь поддерживают всесторонне, молодым специалистам предложены хорошие перспективы для развития и достойные условия труда. Об одном из таких молодых и подающих надежды специалисте – экономисте Управления бюджетирования и контроллинга АО «НГМК» пойдет речь.**



Экономист - один из самых важных специалистов на предприятии. Его работа заключается в правильной расстановке приоритетов и целей для получения максимальной прибыли с наименьшими потерями. Для экономиста важно иметь аналитический склад ума, развитое логическое мышление и обладать математическими способностями. Он должен уметь работать с большим количеством информации, не затягивая сроки. Необходимо хорошо владеть компьютером и разбираться в нужных программах.

Все это знает не понаслышке начальник отдела статистики и управленческой отчетности Управления бюджетирования и контроллинга АО «НГМК» Ботиржон Эргашов. За годы безукоризненного отношения к своему делу, подкрепленного умением работать с людьми, Ботиржон Эргашович заслужил уважение со стороны своих коллег.

Родился Ботиржон Эргашов в Бухарской области в Шафирканском районе 4 декабря 1990 года. В свои 33 года имеет впечатляющий послужной список и три высших образования. В 2011 году окончил Навоийский государственный горный институт по специальности «Химические технологии», а в 2013 году - этот же вуз по специальности “Добыча, обогащение и переработка редких и радиоактивных металлов”, получив степень магистра. В прошлом году заочно окончил Ташкентский государственный экономический университет по специальности «Бухгалтерский учет и аудит».

До трудоустройства в управление АО «НГМК» в 2021 году, работал аппаратчиком-гидрометаллургом ГМЗ-1, научным сотрудником в региональном центре трансфера инноваций, был и начальником отдела промышленного развития и локализации производства Главного управления экономики и промышленности Навоийской области. Полученный в те годы опыт, как в экономической сфере, так и управленческой, очень пригодился Ботиржону Эргашову в дальнейшей трудовой деятельности.

С момента начала работы в Управление бюджетирования и контроллинга АО «НГМК» прошло совсем немного времени. Но благодаря исполнительности, ответственности и подготовленности, а главное поддержке начальника Управления - грамотного, высококвалифицированного, с большим опытом работы специалиста Умиджона Костаева и коллег-наставников Махмуда Зикрияева и Фархада Шерназарова Ботиржон назначен на должность начальника отдела.

- Целью Управления бюджетирования и контроллинга АО «НГМК» является планирование финансово-экономической деятельности АО “НГМК”, соблюдение законности в расходовании бюджетных и внебюджетных средств, контроль за эффективным и экономным расходованием средств, обеспечение качественного планирования бюджета для осуществления комбинатом всей финансово-хозяйственной деятельности, - рассказывает Б.Эргашов. - Предотвращение отрицательных результатов хозяйственной деятельности НГМК и выявление внутрихозяйственных резервов для обеспечения финансовой устойчивости. Основная деятельность отдела заключается в том, чтобы выступать в качестве моста с объединенными и вышестоящими министерствами и ведомствами. Экономисты нашего Управления просчитывают все варианты, производят анализ деятельности структурных подразделений предприятия, учитывают и сохраняют передовой опыт, а также отслеживают недостатки, недоработки и дают руководству эффективные рекомендации, подсказывают пути преодоления трудностей, отражая это в цифрах. Подготавливать экономические и финансовые отчеты по комбинату и представлять их в министерствах и ведомствах в соответствующем порядке – это и ответственность, и честь.

Для того, чтобы справляться с таким сложным участком работы, необходимо постоянное развитие, познание новых технологий, тем более, что этого требуют тенденции современного общества. Для Ботиржона Эргашова реализация себя через повышение профессиональных знаний, главная задача и основной долг. Он шагает в ногу со временем и постоянно учится чему-то новому. Так, в 2020 году прошел двухнедельный курс «Стратегии, инвестиционный этикет и инновации» в Высшей школе дипломатии при университете Мировой экономики и дипломатии. С марта по июнь 2022 года в Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан прошел программу повышения квалификации. Среди большого числа талантливой молодежи по всей республике на специальный курс «Лидеры будущего» после нескольких пройденных туров конкурса попал и наш герой. Курс создан на основе Указа Президента Республики Узбекистан от 13 июля 2021 года «О дополнительных мерах по всесторонней поддержке молодежи и дальнейшему повышению ее общественной активности» с целью привлечения на государственную службу активных и инициативных молодых людей и формирования нового поколения кадрового резерва во всех регионах страны. Данные курсы стали толчком для мотивации, чтобы не останавливаться на достигнутом и идти только вперед, расширять кругозор, поднимать профессиональный уровень.

Поддерживает своего партнера и помогает в любых обязанностях и стремлениях супруга Ботиржона Юлдуз. В их красивом союзе родились две дочки и сын. Супруга – переводчик с китайского языка. Работает в крупной известной международной компании “China energy”. В совершенстве владеет и английским языком. Они много путешествуют, наслаждаясь каждым моментом вместе!

Делясь тонкостями и нюансами своей профессии, Ботиржон Эргашович красноречиво убедил, что даже в круговороте цифр и отчетов можно найти место творчеству. Он активно участвует в организации торжественных, праздничных, спортивных мероприятий и викторинах, организуемых профсоюзным комитетом. Кстати, о большом творчестве. Популярный молодой исполнитель песен на таджикском языке Малик, выступающий в дуэте с Народной артисткой Узбекистана Юлдуз Усмоновой, двоюродный брат Ботиржона.

Вот такой интересный и разносторонний Ботиржон Эргашов работает в коллективе комбината, в сплоченной команде Управления бюджетирования и контроллинга АО “НГМК”.

**Ситора ЯТИМОВА.**

■ **Kombinat yoshlari ijodidan**

## G'urur

*Konchilar tunu kun tinmay ishlaydi,*
*Mehnat-la kunini xurram o'tkazar.*
*Va tutgan joyini mahkam ushlaydi,*
*Yumushin maromga mudom yetkazar.*
*Biri yer ustida, biri yer osti,*
*Ularki, ishida fidoiy, faol.*
*Mehnati ta'rifga loyiqdir rosti,*
*Yuzlari yorug'dir, porloq iqboli.*
*Sharafli kasbidan doimo mag'rur,*
*Ishiga baxsh etar aziz jonini.*
*Tanida jo'sh urar oriyat, g'urur,*
*Dunyoga tanitar soha shonini.*

**Guljahon ANORBOYeVA,**
**"Zarmitan" koni laboranti.**

## Ko'ngil

*Sog'inchlarning qanotida azoblarim bosolmadim,*
*Satrlarda ming urinmay dardlarimni yozolmadim.*
*Qayg'u-g'amlar orolida baxt uyimni qurolmadim,*
*Dadajonim, yillar o'tib sizdan ko'ngil uzolmadim.*
*Jigarlarim mehri bo'lak, sizdek qalbim yozolmayman,*
*Mushtiparim - onajonim tinchlarini buzolmayman.*
*Dunyoning bu kamlaridan butun baxtni tuzolmayman,*
*Dadajonim, yillar o'tib sizdan ko'ngil uzolmayman.*
*Otalar o'z qizlarini erkalatsa o'ksir yurak,*
*Menga boshim qo'yish uchun sizdek keng bir yelka kerak,*
*Shunday taqdir yozilganki, peshonamga azal demak,*
*Dadajonim, yillar o'tib sizdan ko'ngil uzolmadim.*

**Charos DAVRONOVA,**
**Navoiy mashinasozlik zavodi iqtisodchisi.**

## Onamga

*Eh mening mehribon, jannatim onam,*
*Gul isin tuyaman otash kaftida.*
*Suyanchim, dardkashim, sirdosh hamxonam,*
*Mehr bor, sehr bor issiq taftida.*
*Siz borki, men uchun munavvar dunyo,*
*Siz borki, baxtiyor o'tmoqda kunlar.*
*Siz borki, yo'limni yoritar ziyo,*
*Siz borki, omad yor, nurafshon tunlar.*
*Hamisha baxtimga omon bo'ling Siz,*
*Asrga tenglashib, yuzga to'ling Siz.*
*Alloh bergan umrni mazmunli yashab,*
*Quvonchu shodlikdan doim kuling Siz.*

**Madina SAPAROVA,**
**"G'ujumsoy" koni oshpazi.**

## Haqiqat

*Eng go'zal tuyg'ular kushandasi vaqt,*
*Bu kuyga tushgan ko'p, faqat sen emas.*
*Go'yo yonginangdan boqmay o'tar vaqt,*
*Netay, oliy hakam xayr-xush demas.*
*Dunyoda hech narcha abadiy emas,*
*Mansab ham, davlat ham shunchaki sinov.*
*O'ylasam yurakda g'alayon tinmas,*
*Topgan haqiqatim: dilim qilar ov.*
*Dunyoda hech narcha abadiy emas,*
*Desam shivirlaydi noshud umidim.*
*Bu xulosa-chun sabab hech kimmas,*
*Hayot darslarining sabog'in biling.*

**Dilafro'z QODIROVA,**
**Shimoliy kon boshqarmasi nazoratchisi.**

■ **Культура**

# С песней навсегда

**В текущем году свой 40-летний юбилей отмечает коллектив народного хора ветеранов Дворца культуры «Фархад».**



Хор организован в 1984 году по инициативе Навоийского Совета ветеранов войны и труда на базе Дома детского творчества. С 1995 года хор работает в ДК «Фархад». Активная творческая деятельность хора способствовала тому, что в 1998 году коллектив получил звание «Народный». Позже стал лауреатом премии Совета федерации профсоюзов Узбекистана. Первым художественным руководителем являлась Н.Кокарева, позже - В.Губайдулина, Т.Шильцова, Л.Назаренко, Г.Соколова. В 2022 году к руководству хором пришла молодая талантливая хормейстер Татьяна Пушкина.

Сейчас коллектив хора ветеранов насчитывает 17 человек – это дружная творческая семья, со своими сложившимися традициями, люди разных профессий, ветераны труда, пенсионеры. Хор активный участник городских, районных и областных мероприятий. Часто хоровой коллектив посещает с концертами культурные центры, где его ждут с нетерпением и всегда тепло встречают. Патриотические и лирические песни в исполнении участников всегда находят отклик в сердцах верных слушателей. Через песни они передают людям разных поколений верность своим идеалам.

- Многочисленные почетные грамоты и дипломы различных степеней, благодарственные письма – это высокая оценка работы хора и его руководителя. Народный хор ветеранов - это коллектив единомышленников по общей любви к песне, - рассказывает заместитель директора ДК Шавкат Тухтаев. - В репертуаре много произведений военной поры, песни, родившиеся в самом хоре. Кроме того, участникам коллектива подвластны и другие музыкальные жанры – шуточные композиции, народные, классические песни. Популярность хора ветеранов не случайна, он привлекателен для своих слушателей не только высоким уровнем исполнительного мастерства, но и уважаемым возрастом своих участников, многие из которых уже перешагнули не только седьмой, но и восьмой десяток лет.

Хормейстер Татьяна Александровна Пушкина с четырех лет занимается музыкой в коллективах ДК. Пела в хоре у Татьяны Щельцовой, Людмилы Назаренко, была лучшей их ученицей. Имеет музыкальное образование, преподает в музыкальной школе, виртуозно играет на пианино, ловко дирижирует, прекрасно поет. Когда получила приглашение стать руководителем хора ветеранов, было волнительно начинать работать, боялась, сможет ли найти подход к пожилым людям. Уже идет третий год, как работает в коллективе. За это время участники хора стали целостной командой, полюбили друг друга. С восхищением Татьяна Александровна говорит об участниках, которые, несмотря на возраст, всегда остаются молодыми душой, очень трепетно относятся к песне и с такой радостью дарят ее своим слушателям.

- Пришла сюда по зову сердца 20 лет назад, потому что песню люблю с детства, - рассказывает солистка Августина Ефрюшина. - Нашими предшественниками были ветераны войны, глубоко уважаемые люди, к сожалению, их нет уже в живых, светлая им память, однако мы до сих пор чтим традиции, которые они заложили. Тогда в хор ходили и поэты, и художники, разносторонние, интересные, грамотные люди искусства. И сегодня, замечу, в коллективе талантливые женщины, все как одна рукодельницы, хорошие хозяйки, некогда квалифицированные специалисты своего дела. В составе хора ветеранов есть современная поэтесса Валентина Володина, с выразительной речью и интеллигентная, пишет невероятно красивые стихи. Все мы между собой дружны и общительны. Времяпрепровождение в хоре это радость для меня, вся моя жизнь.

- Уникальный в своем роде коллектив хора ветеранов демонстрирует главное правило хорового жанра, - присоединяется к разговору солистка Любовь Хабарова. - Душевно звучат русские, казахские, корейские, украинские, узбекские народные песни. Для многих из нас этот коллектив стал семьей.

- Репертуар хора обновляется ежегодно, главное, чтобы он был добрым, искренним, несущим зрителям хорошее настроение, покой и позитив, - дополняет солистка Александра Овсянникова. - Выступления хора не только документируются, но и ведется их фотолетопись, и в этом большая заслуга Т.Пушкиной. Хочется, чтобы коллектив хора ветеранов постоянно пополнялся, поэтому руководство ДК приглашает жителей Навои присоединиться к нам, пополнить хор новыми мужскими и женскими голосами, чтобы он и дальше мог дарить людям радость и восхищать своими выступлениями.

В свою очередь многотысячные любители музыки и искусства поздравляют народный хор ветеранов с 40-летним юбилеем и желают коллективу дальнейшего творческого долголетия и благодарных зрителей.

**Ситора ЯТИМОВА.**

■ **Shifokor minbari**

# OFTOB URISHIDAN SAQLANING

**Har bir faslning inson salomatligi uchun ijobiy va salbiy jihatlari bor. Yoz faslining issiq harorati inson tanasida ba'zi muammolarni keltirib chiqarishini hisobga olib, bu faslda, ayniqsa, havo harorati yuqori bo'lgan paytlarda ovqatlanish, tibbiyot xodimlari tavsiyalariga rioya qilgan holda sog'lom turmush tarziga e'tibor berish talab etiladi.**

Chunki quyosh nurining inson organizmiga foydasi bilan birgalikda zararli ta'siri ham isbotlangan. Quyoshning ultrabinafsha nurlari ta'sirida inson suyaklarining sog'lomligi va osteoparoz profilaktikasi uchun zarur vitamin sintez bo'ladi. Quyosh nuri organizmda shodlik va yaxshi kayfiyat uyg'otuvchi garmon-serotonin hosil bo'lishiga yordam beradi. Leykotsitlar ishlab chiqilishiga imkoniyat yaratishi bilan organizmning himoya funksiyasini oshiradi, immunitetni mustahkamlaydi. Shuningdek, inson organizmida modda almashinuvini yaxshilash hisobidan uyqu sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Afsuski, yozning jazirama kunlarida quyosh tig'ida uzoq vaqt bosh yalang, badanni himoya qilmagan holda qolish terining quyosh ta'sirida kuyishiga, ultrabinafsha nurlarning salbiy ta'siri muddatidan ilgari qarish, ajinlar paydo bo'lishiga olib keladi. Eng yomoni, oftob urishi – teri saratoni kasalligini qo'zg'atuvchi asosiy faktorlardan hisoblanadi.

Quyosh tig'ida uzoq vaqt qolish katarakta va boshqa ko'z kasalliklarini keltirib chiqaradi. Xulosa shuki, quyosh nurlarining organizmga me'yoridan ortiq ta'siridan saqlanish lozim. Shifokor sifatida oftob urishiga e'tiborsiz bo'lmaslikni tavsiya etaman. Aks holda bu yomon oqibatlarga olib keladi. Bunday holda nima qilish kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Avvalo, oftob urgan insonni salqin, yaxshi shamollanadigan joyga olib o'tish va tez yordam brigadasini chaqirish lozim. Bemorning ustki kiyim-boshini yechib, xonada shamollatgichni ishlatish, oyoqlarini sal ko'tarish, haroratini pasaytirish uchun yuzini sovuq suvda yuvish, tanasini ho'llangan mato bilan artish yoki o'rash kerak. Bemor hushida bo'lsa, unga namakob (tuz va minerallardan iborat suyuqlik) ichirish darkor.

Yozning issiq kunlarida sintetik matodan tikilgan kiyimlarni kiymaslik kerak. Quyosh urishi quloqda kuchli shovqin, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, ba'zan qusish, bosh aylanishi kabi noxush holatlar bilan kechadi. Bemorda oftob urishida birinchi, ikkinchi darajali teri kuyishi kuzatiladi. Terining kuygan joyiga kosmetik krem, vazelin surtish yoki o'simlik yog'idan foydalanish mumkin. Terining kuygan qismida pufakchalar paydo bo'lgan bo'lsa, infeksiya tushishining oldini olish uchun ularni aslo yormaslik kerak. Bemorga paratsetamol yoki ibuprofen dorilarini ichirish quyosh urishi oqibatida paydo bo'lgan og'riqni pasaytirishga, moychechak va teri uchun foydali boshqa tabiiy vositalarni qo'llanish uni tinchlantirishga yordam beradi.

**Baxtigul UTEMURATOVA,**
**Tibbiy-sanitariya bo'limi poliklinikasi terapevt-shifokori.**

■ **Inson va qonun**

# TADBIRKORLAR HUQUQLARI TA'MINLANMOQDA

**Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar, xususan, davlat rahbari tomonidan tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklar o'z samarasini bermoqda.**

Butun respublikamizda bo'lgani kabi Navoiy viloyat prokuraturasi organlari tomonidan ham tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatimizda 21 ming 71 ta tadbirkorlik subyekti mavjud bo'lib, ular savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, qurilish va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatayapti. Achinarlisi, tadbirkorlik subyektlarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki noqonuniy to'xtatib turish holatlari uchrab turmoqda. Viloyat prokuraturasi organlari tomonidan soliq organlarining tadbirkorlik subyektlarining bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib turish haqidagi qarorlari asosliligi hamda ularning tijorat banklari tomonidan ijro etilishi ahvoli o'rganildi.

O'tgan yili 25 ming 300 ta holatda tadbirkorlik subyektlarining bank operatsiyalari Soliq kodeksining 111-moddasida belgilangan tartibda o'n kungacha va undan ortiq muddatga to'xtatilgan. Bank operatsiyalarining 21 ming 104 tasi 10 kunlik muddatda qayta tiklangan va 4 ming 196 ta holatda bank operatsiyalarini 10 kundan ortiq muddatga to'xtatish haqida soliq organi tomonidan sudlarga arizalar kiritilgan.

Mazkur arizalarning 4 ming 36 tasi qanoatlantirilgan, qolgan 144 tasi rad qilingan hamda 16 tasi ko'rmasdan qoldirilgan va tugatilgan.

O'rganish natijalari soliq organlari va tijorat banklari ko'p holatlarda tadbirkorlik subyektlarining bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib turilishida belgilangan talablarga rioya qilmaganini ko'rsatyapti.

Operatsiyalarni o'n kundan ko'p muddatga to'xtatish haqida kiritilgan 44 ta arizalar sud tomonidan rad etilgan hamda 10 ta ariza sud tomonidan ko'rmasdan qoldirilgan bo'lsada, soliq organlari hamda tijorat banklari tomonidan hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar qayta tiklanmasdan, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari buzilgan.

Bundan tashqari, soliq organlari va tijorat banklari tomonidan 178 ta subyektlarning bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari soliq organlari tomonidan sudning qarorisiz uch oydan bir yilgacha bo'lgan muddatga noqonuniy to'xtatib qo'yilgan. Viloyat prokuraturasi organlari tomonidan mazkur tadbirkorlik subyektlarining asossiz to'xtatilgan bank operatsiyalarining to'liq tiklanishi ta'minlandi.

Aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish to'g'risida viloyat soliq boshqarmasiga taqdimnoma kiritilib, hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar asossiz to'xtatilishiga yo'l qo'ygan 8 nafar bank xodimlarining intizomiy javobgarligi masalasi hal etildi.

**Farhod MAMALATIPOV,**
**viloyat prokuraturasi tashqi savdo, investitsiya va tadbirkorlik sohalarida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi boshlig'i, adliya maslahatchisi.**

**Navbahor tumanida tug'ilib o'sgan Sh.E. ayni kuchga to'lgan, halol mehnat qilib, oilasi va jamiyatga foyda keltiradigan yoshda jinoyatga qo'l urdi. Qing'ir ish esa insonga faqat tashvish keltiradi, uning el-yurt oldidagi obro'siga putur yetkazadi.**

# QING'IR ISHNING OXIRI VOY

Shu yilning 22 yanvarida fuqaro B.X. bilan D.A. orqali tanishib, garchand kimnidir ishga qabul qilish va joylashtirish bo'yicha hech qanday vakolatga ega bo'lmasada firibgarlik yo'liga kirib, B.X.dan ma'lum miqdorda pul mablag'larini o'zlashtirish maqsadida uni "NKMK" AJga qarashli "Pistali" koniga haydovchi vazifasiga ishga kiritib qo'yishga va'da beradi. Qing'ir yo'llar bilan uni 3 ming AQSh dollari miqdorida pul berishga qiziqtiradi.

Yaxshiyamki, Sh.E. g'arazli maqsadiga yeta olmadi. Fuqaro B.X. va D.A.larning arizalari asosida Departamentning G'ozg'on shahar bo'limi va viloyat IIB xodimlari hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbirda u yuqori lavozimdagi tanishlari orqali B.X. "Pistali" koniga haydovchilikka ishga joylashtirish uchun oldindan talab qilingan, kimyoviy ishlov berilgan 3 ming AQSh dollari miqdoridagi pulni Navoiy shahridagi "Vatan" MFY hududida joylashgan dehqon bozori avtoturargohida olayotgan paytida ashyoviy dalillar bilan ushlandi. O'zbekiston Respublikasi JKning 25, 168-moddasi "a" bandi va 28,211-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilgan Sh.E.ga jinoyat ishlari bo'yicha Nurota tuman sudining hukmiga ko'ra ikki yil ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

**Elyorjon ASATOV,**
**Nurota tumani prokurori o'rinbosari.**

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS: "NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

**Tahririyat manzili:** 210100. Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy, "NKMK" AJ boshqarmasi
**Telefonlar:** Muharrir: 79 227-74-64. Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. "Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Adiba AXMEDOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 12100 nusxada chop etildi. Buyurtma № 334. 2024-yil 26-iyun 17:00 da chop etishga topshirildi.